

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

SHOHRUH IBN TEMURNING MISR SULTONI JAQMOQ BILAN ELCHILIK ALOQALARI

*Mirzaliyev Ulug’bek Abdurashidovich
Farg’ona davlat universiteti tarix o‘qituvchisi*

Kalit so’zlar: Shohruh ibn Temur, sulton Jaqmoq, Misr, Hirot, Malik Ashraf, Chikchaktug’o, Ayyub Sabri Bash, Ka’ba, kisva, shayx Abu Mansur Moturidiy, alloma Roziyning «Tafsiri kabir»i, Hoja Mas’ud Buxoriy asarining sharhi, Mavlono Alouddinning «Sharhi Kashshof»i, Hisomiddin Muborakshoh Parvonachi, Murtazoviy Sayyid Muhammad Zamzamiy, shayx Nuriddin Muhammad al-Murshidiy va mavlono Shamsuddin Muhammad al-Abhari.

Annotatsiya: Maqolani yozishda Ayyub Sabri Bash o‘zining “Ikki muqaddas masjid, odamlar, ishonch va Arabiston yarim oroli entsiklopediyasi” (“موسوعة مراة الحرمين البشر يقين و جزيرة العرب”) nomli asari va G’iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning “**Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar**” (“Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do’st”) va Abdurazzoq Samarqandiyining “**Matlai sa’dayn va majmai bahrayn**” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo’shilish joyi”) nomli asarlaridan ilhomlanib foydalanildi.

Shohruh ibn Temur sohibqiron vafotidan so’ng uning davlatini idora qilgan eng yirik avlodi edi. U 1405-1447 yillar davomida markazi Hirot bo’lgan ulkan davlatni boshqardi. Otasi Amir Temur qoldirib ketgan buyuk Temuriylar silsilasini davom ettirish, balki uni mstahkamlash uchun 40 yildan ziyod umrini shunga bag’ishladi. Hoqoni sayid Shohruh podshoh Xitoydan Rumgacha, Dashti Qipchoqdan Hind diyorigacha Temuriylar davlatining shon-u shavkatini yelkasida tashidi, ushbu davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va elchilik aloqalarini faol olib borishga harakat qildi. Shohruh va o‘g’li Ulug’bek davrida Xitoy, Hindiston, Mo‘g’ullar davlati, Oltin O’rda, Rum, Vizantiya va Misr davlatlari hukmdorlari bilan faol qo’shnichilik aloqalarini amalga oshirdi, ular bilan diplomatik muomalada bo’ldi.

Sohibqiron Amir Temur davrida Misr va unga tutash o’lkalar bilan aloqalar yaxshi emasdi. Sababi Amir Temurning arablar qadami yetgan barcha hududlarni islom bayrog’i ostida birlashtirish, yagona ittifoq tuzish uchun yurishlar qilmoqda edi. Shu bois Misr va unga tobe hududlar: Shom-u Bag’dod Amir Temurning yaqinda ularga kelishi kutilayotgan yurishi xavfida Temuriylar davlatiga ixtilof holatida edilar. Sohibqiron vafotidan so’ng, Misr davlati biroz o‘zini erkin tuta boshladi. Shohruh hukmronligining dastlabki yillarda Misr bilan aloqalar unchalik faol emasdi. Misr sultonı Malik Ashraf va uning davomchisi Sulton Jaqmoq davrida Misr va Temuriylar o’rtasida savdo-elchilik aloqalari rivojlanish bosqichiga chiqdi. Sababi Jaqmoq Misr taxtiga Shohruh podshohning qo’llab-quvvatlashi bilan chiqadi va bunga minnatdorchilik tariqasida Shohruh podshoh huzuriga bir necha marta o‘z elchilarini yuboradi. Hatto musulmonlarning muqaddas qadamjosi Makka shahridagi Ka’baga Shohruh tomonidan ka’bapo’sh yopilishiga Sulton Jaqmoq hayrixohlilik ko’rsatadi. Quyida arab tadqiqotchilaridan biri Ayyub Sabri Bash o‘zining “Ikki muqaddas masjid, odamlar, ishonch va Arabiston yarim oroli entsiklopediyasi” (“موسوعة مراة الحرمين البشر يقين و جزيرة العرب”) nomli asarida Sulton Jaqmoq va Podshoh Shohruh o’rtasida olib borilgan elchilik aloqalari haqida to’xtalib o’tadi. Ushbu asardan bir parcha keltirish bilan so’zimizni isbotlamoqchimiz.

Podshoh Jaqmoq (Chaqmoq) Fors shohi Shohruh tomonidan Qohiraga Xudoning Ka’basini yopish uchun yuborilgan bezakli kisva o’sha yili Misr karvoni tomonidan Makkaga yuborilgan va

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

u Qurbon hayitida osib qo'yilgan. Sulton Jaqmoq va forslar shohi o'rtasida tuzilgan kelishuvga ko'ra bir necha bor elchilik aloqlari amalga oshirilgan. Podshoh Shohruh Jaqmoq Misr sultonligi taxtiga o'tirgan paytda Malik Al-Ashrafning shahzodasi edi. Omadi chopib, Ashrafdan so'ng Misr taxtiga o'tirdi. 842 yili cherkes shahzodalaridan birini Geg Kiova (Chechaktug'o) Fors shohi bilan bitim tuzish uchun Hirotg'a yuborgan edi va Shohruh podshoh arab va fors o'rtasida tuzilgan bu kelishuvdan juda mamnun bo'ldi. Shu bois, u ushbu matoni Ka'baga osib qo'yish uchun yubordi va u (843) yilda Ikki Harom masjid aholisiga da'vatlar olib keldi.¹

Ikki Muqaddas masjidga boshqa ko'plab xizmatlar ko'rsatdi va hijriy 806-yilda hamon turgan Al-Mualla hovuzini ta'mirladi va barpo etdi. Bu hovuz keyinchalik vayron qilingan, ammo Sulton Sulaymon (Mihr Mah)ning qizi tomonidan qayta tiklangan. u Sodon Muhammadni Makkaga jome masjidini tiklash va rekonstruksiya qilish uchun yuborgan.

Biz temuriylar davlatida yashab ijod etgan, saroy tarixchisi G'iyoisdin ibn Humomiddin Xondamirning "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" nomli asari orqali Sulton Jaqmoq va Podshoh Shohruh o'rtasida olib borilgan elchilik aloqlari haqida batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz.

CHICHAKTUG'O (JIJIKBUQO) NOMLI ELCHINING MISR VA SHOM VOLIYSI OLDIDAN KELISHI ZIKRI²

Misr mamlakati Malik Ashrafga taalluqli bo'lgan paytda uning mirohuri³ bo'lgan Chaqmoqbek kechasi bir tush ko'radi. Unda hazrat Shohruh uni ko'tarib, podshoh taxtiga o'tqazadi. Nihoyatda xursand bo'lganidan, hushyorlik holatiga kelib, Misr mamlakatidan umidvor bo'lib yashaydi. Sulton Malik Ashraf vafot etgach, arkoni davlat va ulug' a'yonlari, jumladan, amirlarning ko'pchiligi Chaqmoqbekni sultanatga loyiq deb topdi. Uni podshoh, taxtiga o'tqazib, al-Maliki Zohir deb laqab berdilar hamda itoat etish qonun-qoidalarini bajarib, uning sultanatiga mehr qo'ydilar. Chaqmoqbek davlatni boshqarishda mustahkam o'mashib olgandan keyin hos amirlar safida turuvchi Chichaktug'oni munosib tabriklar va hadyalar bilan olampano Shohruh dargohiga yubordi.

Chichaktug'o hijriy 843 yilda⁴ Hirot dorussaltanatiga yetib kelib, uch kundan keyin ulug' amirlar vositasida hazrat hoqon bilan ko'rishish saodatiga erishdi. Ul hazrat lutf ko'rsatib va marhamat qilib, mamlakat ahvolini unga zohir ayladi, mehr-muhabbat va do'stlik rishtalarini mustahkamlash haqida o'z aqidalarini izhor etdi. Uning uchun o'ng qo'lda katta amirlar uchun bir qator joy tayin etdi va o'sha kuni katta to'y uyuştirilgan edi. Humoyun yig'inda ishlatilgan idishlarning aksariyati toza qizil tillidan va ular gavhar toshlar bilan bezatilgan edi. Chichaktug'o ziyoftdan keyin izzat va hurmat bilan o'z makoniga qaytdi, ulug' shahzodalar va hurmatli amirlar navbati bilan unga atab to'y qildilar. Ular zarli egar bilan bezatilgan arabi otlar va shohona hil'atlarni Misr sultoni uchun jo'natdilar. O'sha asnoda Chichaktug'o arz etdiki, Sulton Chaqmoq yetti o'lka podshohi kutubxonasidan ahli sunna va-l jamoa uchun sharhlangan beshta mo'tabar kitobni so'raganlar. Ularning mualliflari shayx Abu Mansur Moturidiy, alloma Roziyning «Tafsiri kabir»i, Hoja Mas'ud Buxoriy asarining sharhi, Mavlono Alouddinning «Sharhi Kashshof»i va shofe'iylar mazhabidagi ravzalardir. Bu kitoblar majmuasi humoyun

موسوعة مراة الحرمين البشر يقين و جزيرة العرب. أیوب صبری باش. ۱۰۹۸۱

Ikki muqaddas masjid, odamlar, ishonch va Arabiston yarim oroli entsiklopediyasi. Ayoub Sabry Bash. 1890 –yil. 573-bet

2 Фиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир "Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar" (башар ахли сийратидан хабар берувчи дўст) ТОШКЕНТ "O'ZBEKISTON" 2013. Форс тилидан таржима, мукаддима муаллифлари: Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов. 437-438-betlar

3 Mirohur — ohur boshliri

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

kutubxonasida mavjud bo‘lganligi bois hoqoni sayid buyruq berdiki, har besh kitobni chiroyligi xat bilan yozib, jadval tortib, Chichaktug’oga topshirdilar. Chichaktug’o qaytishga ijozat so‘raganda, unga atab qaytadan ziyofat berdi va Sulton Chaqmoq, uchun podshohona tabriklar va husravona hadyalar tayin etildi. Elchiga ellik ming dinor kepakiy miqdorida mablab in’om etildi, uning ellik navkarining har biriga ot, kiyim va ming dinor inoyat qilindi. Mavlono Hisomiddin Muborakshoh Parvonachining elchi sifatida ul elchi hamrohdigida Misrga borishiga qaror qilindi. Mazkur yil rajab oyining un sakkizinchisida⁵ Chichaktug’o ruxsat olib, yo‘lga tushdi. Bu elchilar guruhi Isfahon, Sheroz, Yazd va Koshon orqali o‘tishni niyat qilganlari uchun, hazrat hoqoni sayid ul viloyatlarga choparlar jo‘natib, «Elchilar shaharga kirgan vaqtida shaharni bezatsinlar va har to‘rt shahardan ellik ming dinori kepakiy unga in’om etsinlar», deb xabar berdi.

KA’BAI MUAZZAMAGA JOMA YOPISH ZIKRI 6

O’tgan yilda⁷ hazrat hoqoni sayid janob Murtazoviy Sayyid Muhammad Zamzamiyni Sulton Chaqmoqdan Ka’baga joma yopish uchun ruxsat olishga Misrga jo‘natdi, Sayyid Muhammad ul viloyatga shoshilib, Misr podshohidan muddaoga muvofiq javob olib, qaytdi. Shuning uchun ushbu kunda sharif zotli hoqon Shohruh shifoxonadan alloh lutfi-karami bilan salomatlik sharbatini ichib, o‘sha safar qarori bo‘yicha shayx Nuriddin Muhammad al-Murshidiy va mavlono Shamsuddin Muhammad al-Abhariyni Baytullohga borish uchun vakil etib tayinladi va ular bu ishga kirishdilar. Hazrat shayhulislom va janob mavlaviy jomalarni Yazd dorulbodasida tayyorlatib, Hirotg’a olib kelgan edilar, uni olib yo‘lga tushdilar. Ular Shom mamlakatiga kirgan ham edilar, ul davlat amirlari va a’yonlari bularga nisbatan hurmat ko‘rsatib, ziyofat berdilar. Misr hududiga kirgandan keyin esa Sulton Chaqmoq o‘z yaqinlari va hos odamlarini u ikki buzrukvorni kutib olib, izzat-hurmat bilan shaharga keltirishlari uchun jo‘natdi. Janob shayx va hazrat Mavlono uch kun dam olgandan keyin Sulton ularni huzuriga chorlab, ularni e’ozzlab, ularga iltifot ko‘rsatdi. Ulardan hoqoni sayidning ahvolini so‘radi. Bir necha kundan so‘ng Hijoz safari jihozlarini to‘g’rilab, ularga ruxsat berildi. Elchilar Makkaga yetib kelgach, tavof saodatiga erishib, Alloh uyiga joma kiygizdilar. Shunday buyuk ish jahongir hoqon Shohruh hazratlari e’tibori tufayli amalgaga oshirildi. Janob shayx va hazrat mavlaviy haj amallarini bajargandan so‘ng Xuroson tomon yo‘lga tushdilar.

Xulosa qilib aytganda ushbu ikki tarixchi tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, podshoh Shohruh va sulton Jaqmoq o‘rtasida bir necha bor elchilik aloqalari olib borilgani, bu ikki davlat o‘rtasida o‘sha yillarda samimiyy munosabatlar bo‘lganligi va birgalikda yakdil kelishuv bilan musulmonlarning muqaddas ziyyaratgohi hisoblangan Ka’ba ustiga kisva yopilishi haqidagi fikrlar to‘g’ridir. Bu elchiliklardan manfaat ikki tomon uchun ham muhim edi. Sulton Jaqmoqning bu kelishuvdan manfaati bundan buyon Temuriylar davlati bilan do‘stona aloqalar o‘rnatish, savdo aloqalarini tiklash va podshoh Shohruhga taxt masalasida unga hayrixoh bo‘lganligi uchun minnatdorlik bildirish edi. Podshoh Shohruhning bu elchilikdan maqsadi ayni sultonniki kabi savdo va elchilik aloqalarini rivojlantirish va musulmon podshoh sifatida Sharqdagi barcha musulmonlarning homysi o‘laroq muqaddas Makka shahridagi musulmonlarning ziyyaratgohi Ka’baga kisva yopishni o‘zining burchi hisoblardi. Shuningdek,

5 843-yil hijriy (milodiy 1439-yil 25-dekabr

6 Фиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир
(башар ахли сийратидан хабар берувчи дўст) ТОШКЕНТ “О‘ZBEKISTON” 2013. Форс тилидан таржима,
муқаддима муаллифлари: Жалил Ҳазратқулов, Исломил Бекжонов. 444-445-betlar

7 844-hijriy yil (1440-yil) nazarda tutilmogda.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ushbu jarayon Sharqdan G'arbgan tomon ketayotgan karvon yo'lini Ka'bagacha himoyasini podshoh Shohruh o'z qo'liga olganligini anglatar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ikki muqaddas masjid, odamlar, ishonch va Arabiston yarim oroli entsiklopediyasi. موسوعة مراة الحرمين البشرية و جزيرة العرب. أیوب صبرى باش. ١٨٩٠ – ١٩٨٠ yil.
2. Фиёсиддин ибн Ҳумомиддин Ҳондамир “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar”(башар аҳли сийратидан ҳабар берувчи дўст) ТОШКЕНТ “O'ZBEKISTON” 2013. Форс тилидан таржима, мукаддима муаллифлари: Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов.
3. Ibn Tag'riberdining “An-nujumu uz-zahiri fi muluki Misr val Qohira”(النجم الظاهر في ملوك) مركز الفانمية باصفهان للتراثيات الكمبيوترية مصر والقاهرة
4. Ibn Arabshoh “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). U. Uvatov tarjimasi. “Мехнат” – Ташкент – 1996. 192 б
5. Абдураззоқ Самарқандий. “Матлаи саъдайн ва мажмаъ ал-баҳрайн”, - Тошкент - “Ўзбекистон”, 2008
6. Ҳондамир Фиёсиддин бин Ҳумомиддин. Буюклик хислати: «Ҳабиб ус-сиғар фи ахбори афроди башар» китобининг Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидағи боблари. / Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи И. Бекжонов. – Т.: «Sharq», 2011. - 304 б.
7. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Т.: “Фан”, 1980. – 346 с.
8. Хафиз-у Абру. Извлечение из «Зубдат ат-таварих». // перевод с персидского А.Буриева. / Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Т.: “Фан”, 1988. С. 143-148.
9. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. К. II-III. 1429-1470 йил воқеалари. – Т. : «O'zbekiston». 2008. – 832 б.